



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar-avgust*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 76-225-65-74*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-sentabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 118 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 72 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 046 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-avgust oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 13 996,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 108,6 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 450,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 118,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 13 546,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 831,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 114,8 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-avgust oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	13996,9	108,6
Termiz sh.	2582,0	107,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	582,5	111,5
Angor	693,1	110,1
Bandixon	218,0	110,5
Boysun	585,3	109,9
Muzrabot	616,7	110,1
Denov	2991,2	107,5
Jarqo'rg'on	803,0	109,6
Qumqo'rg'on	578,4	112,3
Qiziriq	604,2	107,4
Sariosiyo	517,7	111,9
Termiz	270,6	107,0
Uzun	652,1	110,3
Sherobod	833,5	106,6
Sho'rchi	1468,6	107,9

2024-yilning yanvar-avgust oyida 2023-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan viloyatning Oltinsoy Qumqo'rg'on (112,3 %), Sariosiyo (111,9 %) va Oltinsoy (111,5 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-avgust)




So'ngi 5 yillikda (2020- 2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) (2023-yil, 2024- yil yanvar-avgust oylari)




2024-yilning yanvar-avgust oyida o'sish sur'ati **108,6 %** ni tashkil qildi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 21,4 % bilan 2 991,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Bandixon tumani 1,6 % bilan 218,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-avgust oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra,

13 546,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 8,3 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi

96,8 % ni tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 18,0 % ga oshdi va 450,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,2 % ulushiga to'g'ri keldi.



110,1

Muzrabot

110,3

Uzun

110,5

Bandixon

111,5

Oltinsoy

112,1

Sariosiyo

112,1

Qumqo'rg'on

Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

111,3

Termiz

113,2

Angor

114,7

Oltinsoy

118,0

Muzrabot

130,6

Qumqo'rg'on


131,6

Sho'rchi

167,3

Termiz sh.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qiziriq (99,5 %), Boysun (99,4 %) va Angor (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 3,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz sh (6,5 %), Denov (5,4 %), Sherobod (2,7 %) va Jarqo'rg'on (2,4 %) tumanlarida kuzatildi.

3,2 %



96,8 %



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma’lumot, *ming so’m*da

Termiz sh	12 719,1	Termiz	3 176,7
Oltinsoy	3 007,0	Uzun	3 453,7
Angor	4 793,4	Sherobod	3 935,3
Bandixon	2 611,2	Sho‘rchi	6 390,8
Boysun	4 678,3		
Muzrabot	3 996,9		
Denov	7 078,0		
Jarqo‘rg‘on	3 351,3		
Qumqo‘rg‘on	2 252,5		
Qiziriq	4 848,9		
Sariosiyo	2 261,7		

2024-yilning yanvar-avgust oyi holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 4 839,3 ming. so‘mni (2023-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 105,9 %) tashkil etdi.


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (12 719,1 ming. so‘m), Denov (7 078,0 ming. so‘m) va Sho‘rchi (6 390,8 ming. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024-yil yanvar-avgust), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o‘rinlari, turg‘un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- avgust oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	2831,7	114,8
Termiz sh.	220,9	131,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	278,6	122,9
Angor	91,9	99,9
Bandixon	143,1	108,8
Boysun	186,0	128,7
Muzrabot	276,6	117,0
Denov	312,9	111,7
Jarqo‘rg‘on	155,6	107,4
Qumqo‘rg‘on	157,4	120,1
Qiziriq	208,8	122,5
Sariosiyo	214,8	116,6
Termiz	62,1	103,4
Uzun	204,6	114,2
Sherobod	92,9	95,1
Sho‘rchi	225,5	102,2


* – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-avgust)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024-yil yanvar-avgust)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-avgust oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 831,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 114,8 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 381,4 mlrd. so'mni (119,9 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 450,3 mlrd so'mni tashkil etdi (110,3 %).

2024-yilning yanvar-avgust oyida tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 381,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (698,0 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 698,0 mlrd. so'm  50,5%	Non va non mahsulotlari 149,5 mlrd. so'm  10,8 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 133,1 mlrd. so'm  9,6 %
Tovuq go'shti 41,4 mlrd. so'm  3,0 %	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 73,4 mlrd. so'm  5,3 %	Tuxum 45,0 mlrd. so'm  3,3 %
Ziravorlar 29,2 mlrd. so'm  2,1 %	Sut va sut mahsulotlari 41,2 mlrd. so'm  3,0 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 18,4 mlrd. so'm  1,3 %
Tuzlamalar 24,6 mlrd. so'm  1,8 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 28,6 mlrd. so'm  2,1 %	Nooziq-ovqat tovarlar 99,0 7,2 %

2024-yilning yanvar-avgust oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 450,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 1 046,3 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 387,9 mlrd. so'mni, otlar – 12,4 mlrd. so'mni, parrandalar – 3,7 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva
mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 693,5 mlrd. so'm  47,8 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 198,6 mlrd. so'm  13,7 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 154,2 mlrd. so'm  10,6 %
Qo'ylar 327,5 mlrd. so'm  22,6 %	Otlar 12,4 mlrd. so'm  0,8 %	Echkilar 60,4 mlrd. so'm  4,2%
Kurka, o'rdak, g'oz 1,5 mlrd. so'm  0,1 %	Tovuqlar 1,6 mlrd. so'm  0,1 %	Quyionlar 0,6 mlrd. so'm  0,1 %
Qushlar 0 mlrd. so'm  %		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-sentabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 544 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 543 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar – iyun oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	350,4	107,0
Termiz sh.	133,6	104,7
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	9,4	113,8
Angor	10,5	108,2
Bandixon	3,2	121,6
Boysun	8,2	110,0
Muzrabot	8,6	115,8
Denov	56,2	102,6
Jarqo'rg'on	18,8	101,1
Qumqo'rg'on	8,2	106,6
Qiziriq	6,7	104,6
Sariosiyo	19,1	117,8
Termiz	27,4	107,4
Uzun	10,0	110,7
Sherobod	16,5	114,8
Sho'rchi	14,1	116,9

2024-yilning yanvar-avgust oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 350,4 mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 7,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	1088,2	100,0
Termiz sh.	373,4	34,3
tumanlar:		
Oltinsoy	4,0	0,4
Angor	20,7	1,9
Bandixon	0,4	
Boysun	2,1	0,2
Muzrabot	1,1	0,1
Denov	561,5	51,6
Jarqo'rg'on	61,7	5,7
Qumqo'rg'on	2,7	0,3
Qiziriq	3,6	0,3
Sariosiyo	9,5	0,9
Termiz	16,6	1,5
Uzun	1,3	0,1
Sherobod	4,7	0,4
Sho'rchi	24,9	2,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Denov tumani (561,5 mlrd. so'm) va Termiz shahri (373,4 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024-yilning yanvar-avgust oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 1 088,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,6 % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 310,8 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 57,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 777,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati –82,4 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-avgust oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 956,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 6,5 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

11,1 %

441,1 mlrd. so'm

Yirik korxonalar

88,9 %

3 515,7 mlrd. so'm

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 3 515,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 111,8 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,9 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR’ATI

2024-yil 1-sentabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 118 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 19 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 099 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur’atlariga ega eng yirik korxonalar Angor (234,4 %) , Denov (139,4 %) va Oltinsoy(119,6%) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- avgust oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	3956,8	106,5
Termiz sh.	901,7	107,0
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	105,0	109,4
Angor	87,9	103,0
Bandixon	268,3	106,7
Boysun	17,3	109,7
Muzrabot	264,2	172,2
Denov	1216,9	108,0
Jarqo‘rg‘on	107,5	102,1
Qumqo‘rg‘on	172,7	78,1
Qiziriq	27,0	97,0
Sariosiyo	82,8	113,2
Termiz	226,3	119,3
Uzun	41,0	50,2
Sherobod	208,0	139,9
Sho‘rchi	230,2	77,4